XALQ DEPUTATLARI NISHON TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2021 - yil 30 - dekabr VI-42-79-4-65-K/21 Nishon tuman hokimligi

Nishon tumanining 2022 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2021 yil 30 dekabrdagi 01/20-01-32/837-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Nishon tuman Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1.O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2.O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Nishon tumani mahalliy budjetining 2022 yil uchun daromadlari 106,5 million so‘m, xarajatlari 140,0 million so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 33,5 million so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3.2022 yil uchun Nishon tumanini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2023-2024 yillarga maqsadli mo‘ljallari 1-ilovaga muvofiq, 2022 yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4.2022 yil uchun tumanning tuman budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5.2022 yil uchun tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha tuman mahalliy budjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda tuman bo‘yicha G‘aznachilik bo‘linmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6.2022 yil uchun tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7.2022 yil uchun viloyat budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8.2022 yil uchun tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1320,8 million so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman budjetining 2022 yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Nishon tumani budjetining, tuman budjetini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmaydi.

9.2022 yil uchun tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 843,9 million so‘mni tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

10.O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022 yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari

kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022 yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.

b)tuman mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va

sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

xususiylashtirishdan tushgan tushumlar va boshqa soliqlar;

v) viloyat budjeti hamda tuman budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

11.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Buriyev), moliya bo‘limi mudiri (X.Yuldashov), Davlat soliq inspeksiya boshlig‘i (U.Butayorov) tuman hokimligi va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon hamda kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12.Nishon tuman davlat soliq inspeksiyasi (U.Butayorov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

13.Nishon tuman Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i (U.Butayorov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i (Y.Abdushukurov) 2022 yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

14.Nishon tuman Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i (U.Butayorov), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish mintaqaviy inspeksiyasi hamda tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karyerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karyerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

15.Majburiy ijro byurosi Nishon tuman bo‘limi (R.Elmurodov) tuman Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i (U.Butayorov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

16.Mahalla va oilani qo‘llab-quvatlash bo‘limi boshlig‘i (SH.Xo‘jaqulova)

jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

17.Tuman hokimining o‘rinbosari (T.Xatamov) Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Qashqadaryo viloyat boshqarmasi (SH.Bo‘riyev), Bo‘sh turgan obyektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasi (I.Jo‘rayev) bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini «ye-ijro auction» maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

18.Tuman Davlat soliq inspeksiiyasi boshlig‘i (U.Butayorov), tuman moliya bo‘limi boshlig‘i (X.Yuldashov), Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasi (Sh.Bo‘riyev) bilan birgalikda davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2022 yilning 1 iyuliga qadar 2021 yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2022 yilning 1 sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

19.Tuman hokimining o‘rinbosari (T.Xatamov), monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasi bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

20.Nishon tuman irrigatsiya bo‘limi boshlig‘i (Y.Xudayberdiyev) va tuman soliq inspeksiya boshlig‘i (U.Butayorov) bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

21.Tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i (SH.Shokirov), tuman IIB YHXB boshlig‘i (SH.Xolmatov), Davlat xizmatlari agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i (J.Nuraliyev) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

22.Tuman moliya bo‘limi boshlig‘i (X.Yuldashov), tuman xalq ta’lim bo‘limi, tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi va tuman tibbiyot birlashmasi boshliqlari bilan birgalikda:

budjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlarini kuchaytirsin;

budjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har oy yakuni bilan tuman Kengashiga axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti har chorakda eshitib borilsin.

23.Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

24.Tuman hokimligi:

Tuman budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirib borilsin.

25.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Buriyev), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tegishli boshqarma va bo‘lim boshliqlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

26.Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

27.Xalq deputatlari Nishon tumani Kengashining 2020 yil 30 dekabrdagi 63/19-06-sonli qarori 2022 yil 1 yanvar kunidan o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

28.Mazkur qaror “Nishon tongi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining “nishont.uz” rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

29.Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

30.Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **M. K. Xayitmuradov**

Халқ депутатлари Нишон туман Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-42-79-4-65-K/21-сон қарорига
1-илова

Nishon tumaning 2022-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognoz ko‘rsatkichlari hamda 2023-2024-yilga mo‘ljallari

№	Ko‘rsatkichlar	2022-yil uchun prognoz	Mo‘ljal	
			2023-yil	2024-yil
1	Xizmat ko‘rsatish sohasida, foizda	111,0	111,7	112,2
2	Qurilish ishlari, foizda	108,2	109,1	110,0
3	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	108,1	109,5	110,6
4	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	104,8	105,1	105,9
5	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, foizda	108,5	109,1	110,0

Халқ депутатлари Нишон туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-42-79-4-65-K/21-сон қарорига
2-илова

Nishon tumani mahalliy budjetlarining 2022-yilgi asosiy daromad ko‘rsatkichlari to‘g‘risida

MA’LUMOT

№	Daromad turlari	Nishon tumani
I.	**Rag‘batlantiruvchi (Stimuliruyushchiye) daromad**	**34 800 000**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	87 000 000
	Me’yoriy ajratma	***40***
	Mahalliy budjetga	34 800 000
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	5 500 000
	Me’yoriy ajratma	
	Mahalliy budjetga	0
II.	**Biriktirilgan daromadlar**	**71 654 000**
1	Aylanmadan olinadigan soliq to‘lovi	5 300 000
2	Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq	1 235 000

3	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan aksiz soliq	5 150 000
	Me’yoriy ajratma	***100***
	Mahalliy budjetga	5 150 000
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	9 912 000
	Me’yoriy ajratma	
	Mahalliy budjetga	0
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 300 000
6	**Yer solig‘i**	37 000 000
	Yuridik shaxslar yer solig‘i	30 000 000
	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	7 000 000
7	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	600 000
8	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	12 519 000
9	Boshqa soliqsiz tushumlar	6 550 000
	Yig‘imlar	2 500 000
	Me’yoriy ajratma	***100***
	Mahalliy budjetga	2 500 000
	Davlat boji	
	Ijara to‘lovi	300 000
	Jarimalar	
	Xususiylashtirish	3 300 000

	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	450 000
	Boshka tushumlar	
III.	**Viloyat va tuman (shahar)lar budjetlari o‘rtasida taqsimlanadigan daromadlar**	**0**
	Aholi soni (ming kishi)	
14	Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	
15	Mobil aloqaga aksiz solig‘i	
16	Tamaki mahsulotlariga aksiz solig‘i	
IV.	**JAMI MAHALLIY BUDJET DAROMADLARI**	**106 454 000**
	Ma’lumot uchun: 2021-yilgi parametr	*70 109 019*
V.	**JAMI MAHALLIY BUDJET XARAJATLARI**	**140 006 099**
VI.	**TRANSFERT**	**33 552 099,0**

Daromadning o‘tgan yilga nisbati (foizda)	**152**
Transfert ulushi (daromadga nisbatan) foizda	**29**

Халқ депутатлари Нишон туман Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-42-79-4-65-K/21-сон қарорига
3-илова

2022-yil uchun Nishon tumani budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

	Xarajatlar - jami	140 006
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar - jami**	**106 145**
	shu jumladan:	
1.1	Maorif	19 779
	- maktabgacha ta’lim	11 280
	- umumiy ta’lim	8 499
	shundan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun tushlik berish xarajatlari	
	- kadrlar tayyorlash	0
1.2	Sog‘liqni saqlash	47 082
1.3	Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar	84
1.4	Madaniyat	1 557
1.5	Sport	1 644
1.6	Fan	0
1.7	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	35 945
1.8	CHernobil falokatini bartaraf etishda qatnashganlarni ijtimoiy himoyalash	0
1.9	Davlat mukofotlarini to‘lash bo‘yicha xarajatlar	0
1.10	Imtiyozli kontingentdagi kishilarni bepul tashiganlik uchun trolleybus xo‘jaligining zararini qoplash	0

1.11	Toshkent metropolitenida kunduzi soat 10:00 dan 16:00 gacha bo‘lgan kunduzgi davrda pensionerlarni bepul tashishda va bepul yurish huquqini beradigan yagona guvohnomalar bo‘yicha hisobga olinadigan yo‘lovchilarni tashish natijasida olinmay qoladigan daromadlarni qoplash	0
1.12	Shahar passajir transportida ba’zi kategoriyadagi kishilarning bepul yurishlarini budjetdan qoplash	0
1.13	CHeklangan tariflar bo‘yicha yo‘lovchilar va bagajni tashish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatilishi munosabati bilan shahar yo‘lovchi tashish transporti tashuvchilari ko‘radigan zararlarni qoplash shuningdek shahar pasajir transportda bepul yurish huquqini beradigan yagona guvohnomalar bo‘yicha hisobga olinadigan yo‘lovchilarni tashish natijasida olinmay qoladigan daromadlarni qoplash	0
1.14	Fuqarolarga yetkazilgan zararni koplash	0
1.15	1941-1945 yillardagi urush faxriylari va unga tenglashtirilgan shaxslar uchun asosiy turdagi ozik-ovkat maxsulotlari va gigiyena tovarlarini bepul berish xarajatlari	0
1.16	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	55
2.	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**14 982**
	shu jumladan:	
2.1	Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazlari	1 265
2.2	O‘simliklar karantini inspeksiyalari xarajatlari	0
2.3	Obodonlashtirish	10 462
2.4	Ko‘p kvartirali uy-joylarning tutash hududlarini obodonlashtirish xarajatlari	0
2.5	Issiqlik ta’minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari	0
2.6	Maxsus ekspluatatsiya-montaj xarajatlari	0
2.7	Ko‘p kvartirali uylardagi lift uskunalarini ta’mirlash va yangilash	0
2.8	"Toza hudud" Davlat unitar korxonasi	
2.9	Xo‘jayli va Chalish suv yo‘li texnik uchastkasi	0

2.10	Issiqlik ta’minot korxonalariga subsidiyalar	0
2.11	Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari	1 031
2.12	O‘rmon xo‘jaligi tashkilotlari	0
2.13	Davlat ekologiya qo‘mitasining hududiy boshqarmalari	0
2.14	Chigirtka va qizil kapalakka qarshi profilaktika va kurashish radiologik va toksikologik kuzatuvlarni olib borish, tuproq hamda qishloq xo‘jalik mahsulotlaridagi og‘ir metall tuzlari va pestitsidlar cho‘kindi qoldiqlari, to‘plangan radionuklidlarni tahlil qilish bo‘yicha chora-tadbirlar	
2.15	Pillachilik va qorako‘lchilikni rivojlantirish qo‘mitasining hududiy bo‘limlarini saqlash xarajatlari	0
2.16	Uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining xududiy bo‘limlarini saqlash xarajatlari	0
2.17	Veterinariya qo‘mitasi	1 127
2.18	Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	0
2.16	Umum foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini saqlash va ekspluatatsiya xarajatlari	
2.19	Avtobus yo‘nalishlarining yillik subsidiyalash xarajatlari	
2.20	Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	1 097
3.	**Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishga xarajatlar**	**0**
3.1	tuman va shahar markazlarini obodonlashtirish	
3.2	Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishga xarajatlar	0

3.3	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash	0
3.4	Umumta’lim maktablarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash	0
3.5	Sog‘liqni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash	0
3.5	Sport muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash	
3.6	Melioratsiya obyektlari	0
3.7	Avtomobil yo‘llari	
3.8	Oliy ta’lim	
3.7	Ichimlik suvi va kanalizatsiya	
3.10	Boshqa hukumat qarorlari asosida ajratilgan mablag‘lar	
3.8	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taqsimlanadigan mablag‘lar	
3.9	«Obod qishloq» va «Obod maxalla» dasturlarining xarajatlari	
4.	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**7 105**
5.	**Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash**	**3 849**
6.	**Zahira jamg‘armasi**	**1 321**
7.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**6 604**
8.	**Boshqa xarajatlar**	**0**
	shu jumladan:	
8.1	Mahalliy budjetdan moliyalashtiriladigan boshqa muassasalar va tadbirlar	0
8.3	Qabullar uyini saqlash xarajatlari	0
8.4	Advokatlik xizmatlari xarajatlari	0
8.5	Ichki va tashqi qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlari	0

Shundan davlat qarzini so‘ndirish bilan bog‘liq xarajatlar

Халқ депутатлари Нишон туман Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-42-79-4-65-K/21-сон қарорига
4-илова

Umumdavlat soliqlaridan shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga 2022-yildagi ajratmalari me'yorlari

foiz hisobida

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	Aylanmadan olinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	Yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslar yer solig'i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i
1	Nishon tumani	0	100	40	100	100	0	100	100	100

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Davlat boji	Jarimalar	Yig'imlar	Davlat unitar korxonalarining sof foydasidan ajratma	Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari	Xususiylash-tirish	Boshqalar
1	Nishon tumani	100	100	0	0	100	100	100	100	0

Халқ депутатлари Нишон туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-42-79-4-65-K/21-сон қарорига
5-илова

Nishon tuman mahalliy budjetlarining 2022-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Budjetlar nomi	Daromad *	Xarajat
JAMI	**106 454 000,0**	**140 006 099,0**
Nishon tumani	106 454 000,0	140 006 099,0

** mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar bo‘yicha o‘tkazib beriladigan daromadlar bilan birgalikda.*

Халқ депутатлари Нишон туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-42-79-4-65-K/21-сон қарорига
6-илова

Nishon tuman mahalliy budjetlarining 2022-yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

Shahar va tumanlar	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**
JAMI	**33 552 099,0**
shundan	
Nishon tumani	33 552 099,0

Халқ депутатлари Нишон туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-42-79-4-65-K/21-сон қарорига
7-илова

Nishon tuman mahalliy budjetlarida 2022-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/rHudud nomi	Miqdor
JAMI	**843 871,0**
1 Nishon tumani	843 871,0